



TALABALARNI TA'LIMYI QADRIYATLAR ASOSIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGNING O'RNINI

Choriyeva S.Ch.

*Termiz davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrasi o'qituvchisi
Otaqulova S.E.*

*Termiz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Tayanch soʻzlar: qadriyat ildizi, qadrlash meʼzoni, muqaddas kitob, sivilizatsiya, qadriyatlar kategoriyasi, qonuni, millat, jamiyat, maʼnaviy yetuklik, ijtimoiy haqoʻylik, umumbashariy demokratik munosabatlar, ijtimoiy jarayonlar.

Ключевые слова: корень ценности, критерии ценности, священная книга, цивилизация, категория ценностей, право, нация, общество, нравственная зрелость, социальная справедливость, всеобщие демократические отношения, социальные процессы.

Key words: root of value, criteria of value, holy book, civilization, category of values, law, nation, society, moral maturity, social justice, universal democratic relations, social processes.

Kirish. Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy maʼnaviy ahamiyatini koʻrsatish uchun qoʻllanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli boʻlgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, maʼrifat, haqiqat, yaxshilik, goʻzallik, moddiy va maʼnaviy boyliklar, anʼana, urf-odat va boshqalar qadriyatlar hisoblanadi. Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan boʻlsa, bu tushunchaga shu jihatdan taʼrif berishga intilishgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qadriyatlar tushunchasi nihoyatda xilma-xil maʼnoda turli sohalarda qoʻllaniladi. Qadriyatlar toʻgʻrisidagi fan bu-aksiologiyadir. Bu atama ilmiy bilimlar sohasiga oʻtgan asrning ikkinchi yarmida nemis aksiologi E.Gertman va fransuz olimi P. Lapi tomonidan kiritilgan. Gʻarbda bu atama grekcha “qadriyatlar” va “fan”, “taʼlimot” tushunchalariga asoslanadi. Qadriyatni aksiologik nuqtai nazardan talqin qilish, uning kategoriya sifatidagi

mazmuni, ob'ektiv asosi va sub'ektiv jihatlari, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlarini o'rganisga imkon beradi. Qadriyatlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy madaniy- ma'naviy taraqqiyot mahsulidir. Shuning uchun ham qadriyatda zamonning ruhi, imkoniyatlari, o'sha zamonda yashagan odamlarning orzu-umidlari, istaglari, talab va ehtiyojlari o'z ifodasi topadi. Zamonlar o'tishi bilan qadriyatlar mazmuni va ma'nosi o'zgarib boradi. Xuddi shuning uchun ham qadriyatlarining tarbiyaviy ahamiyatiga baho bergan konkret tarixiy shart-sharoitlarni doimiy nazarda tutmoq zarur.

Hozirgi zamon qadriyatshunoslik olimlarning fikriga ko'ra qadriyatlarining ham o'ziga xos qonunlari ham bor. Bu qonunlar inson irodasiga bo'ysunmaydi. Qadriyatlar ob'ektiv olamning sub'ektiv inikosi bo'lgani uchun kishilarning amaliy faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Hatto odamlar turmush tarzini o'zgartiradi. Xuddi shuning uchun ham kishilar o'zlarining turmush tarzlarini insoniyatlar yaratgan qadriyatlar talablariga qarab o'zgartirib boradilar.

Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino qadriyatlar haqida fikr-mulohaza yuritganlarida, eng avvalo, insonning ma'naviy- axloqiy fazilatlarini, xislatlarini, xosiyatlarini, insonning ruhiy ma'naviy kamoloti uchun yordam beradigan buyuk xazinasini tushunganlar. Musulmon sharq mamlakatlarida keng tarqalgan diniy falsafiy ta'limot tassavur namoyandalari ham qadriyatlar deganda insonning qadr-qimmatini uning ruhiy ma'naviy yetukligiga qarab belmigalamog'i lozimligini qayta-qayta takrorladilar. Xuddi shuning uchun ham insonning ongi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan, undan tashqarida turmagan bironta qadriyat bo'lishi mumkin emas. Shunday ekan, qadriyatlar munosabatini, go'zal did va jismoniy kamolotni ulug'lovchi, turlarga bo'linmog'i dardkor.

Muhokama. Qadriyatlarini jamiyat, millat hayotidagi o'rni, ijtimoiy xarakteriga qarab milliy va umuminsoniy, sinifiy yoki diniy, shuningdek kishilarning yoshi, professional xususiyatlariga xos qadriyatlarga bo'lishi mumkin. Insonning qadr-qimmatini sha'ni, or-nomusi, milliy g'ururi-milliy qadriyatlar bilan bevosita bog'liq. Milliy qadriyatlar, har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari, xossalari, belgilari, alomatlarini ifodolovchi falsafiy tushuncha bo'lib, o'sha millat bosib o'tgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo'shgan xissasini, ulushini ifodalaydi. Xuddi shu milliy o'ziga xoslik, o'ziga moslik millat madaniyatida, adabiyotida, san'atida, tilida, dinida, tarixiy xotirasida, yashash ishlash va fikrlash tarzida, urf-odatlarida, ras-rusmlarida, bayram-u sayllarida o'z ifodasini topadi. Milliy qadriyatlar milliy manaviy madaniyat ifodasi bo'lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qo'shgan munosib hissasining hosilasidir. Milliy qadriyatlarining negizini urf-odatlar ras-rusmlar, bayram-u sayllar tashkil etadi. O'zbek milliy qadriyatlari mazmunida insoparvarlik g'oyalari yotadi. Uzoq tarix davomida o'beklarning o'zaro munosabatlarida, kundalik



turmush tarzida o'zaro hamkorlik va hamdardlik, vafodorlik va o'zaro hurmat, bir-biriga suyanish va yaxshi qo'shnicilik bolajonlik va ota-onaga hurmat, mehqibat va sadoqat har tomonlama e'zozlanib kelinadi. Milliy qadriyatlar o'sha millatga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan, insoniylik, odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar, xosiyatlarni milliy-madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini ifodolovchi buyuk ko'rsatkichdir. Milliy qadriyatlar, shubhasiz, millatning ravnaqi yoki inqirozi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganimizda milliy qadriyatlar millatning o'tmishi va buguni bilan bog'liq. Shuning uchun ham, "Milliy qadriyatlar millat rivojlanishi bilan rivojlanadi, inqirozga uchrashi bilan qadrsizlanadi, shuning uchun ham, millat-o'zining qadriyatlarini vujudga keltirib ularning yangi- yangi qarralari va jihatlarini sayqallashtirib taraqqiyot jarayonida takomillashtirib turushi manosida o'z qadriyatlarining haqiqiy egasi, makon va zamondagi ilgarilanma harakatdan iborat o'zgarishlar jarayonida ularni o'tmishdan kelajakka tomon yetkazib beradigan ob'ektidir".

Milliy qadriyatlarni tiklash-ulgarga hozirgi zamon sivilizatsiyasi talablariga mos yangi mazmun ato etish demakdir. Xuddi shuning uchun ham, O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishishi bilan mamlakatimizga hozirgi zamon sivilizatsiyasi talablariga javob beruvchi umuminsoniy demokiratik qadriyatlar turmush tarziga kirib kela boshladi. Inson haq-huquqlariga rioya qilish tadbirkorlik erkinligi, matbuot erkinligi anashular jumlasidan edi. "Ushbu demokratik qadriyatlar jamiyatimiz uchun muhim ahamiyatga egaligi haqida gapirar ekanmiz, bu qadriyatlar tarixiy jihatdan ham, etnik-madaniy jihatdan ham xalqimizning o'ziga xos xususiyatlariga zid emasligini qata-qayta ta'kidlashni istardik". Avlod va ajdodlarimiz yaratgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadimgi naqillar, rivoyatlar, afsona, hikayat, dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Sepitamen, Muqanna va Jaloliddin Manguberdi to'g'risidagi asarlarda, Alpomish, To'maris va Shiroq to'g'risidagi afsona va dostonlarda vatanparvarlik xalq va yurt ozodligi uchun fidoyilik kabi ko'plab umuminsoniy qadriyatlar tasvirlangan. Odamlar bir jamiyatda bir davrda va o'xshash sharoitlarda yashayotganlariga qaramasdan u yoki bu narsani Qadri turlicha anglab olinadi, tushuniladi va talqin qilinadi. Ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadriyatlar to'g'risidagi tasavvuri, qarashlari o'zgaradi, bu esa taraqqiyot jarayonida odamlarning, hayoti va ma'naviy qiyofasidagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qadriyatlar jamiyatning rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etadi. Tarixiy zaruriyatga mos ravishda goh u goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi pog'onasiga chiqib boradi boshqalarni hiralashtirganday bo'lib tuyiladi. Natijada ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot qonuniyatlariga mos ravishda oldinga chiqib olgan qadriyatni barqaror qilishga intilish nisbatan kuchayadi. Masalan, yurni yov

bosganida-ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida – istiqloq, urush davrida-tinchlik, tutqunlikda- erkinlik, kasal va be'morlik onlarida-salomatlikning Qadri oshib ketadi, ularga intilish kuzatiladi. Har qanday jamiyat, ijtimoiy-tarixiy birliklar, ijtimoiy subektlar va boshqalar o'ziga xos qadriyatlar tizimiga ega bo'ladin. Bu qadriyatlar tizimida asosiy bo'lmagan qadriyatlar muayyan qatorni tashkil qiladi, turli holatlarda namoyon bo'ladi. Jamiyat rivojiga muayyan davr yoki biror davlatda ham anashunday qadriyatlar tizimi mavjud bo'ladiki, u o'sha davr, jamiyat va davlat kishilari ularning faoliyati uchun umumiy mezon vazifasini o'taydi. Har bir ijtimoiy tarixiy birlik sinf va partiyalar ham anashunday qadriyatlar tizimi asosida faoliyat ko'rsatadilar, ulardan foydalanadilar yoki ularga erishishning turli usullarini qo'llaydilar. U yoki bu qadriyatning ahamiyati aniqlashda ana shunday tizimlar mavjudligini unutmashlik, uning biror davr ijtimoiy birlik, soha, jarayon va boshqalar uchun qanday mavqeyga ega ekanligini nazardan qochirish lozim. Jamiyatning yashashi, odamlarning hayot kechirishi uchun yuqoridagi qadriyatlar bilan birga jamiyatdagi umumijtimoiy va umuminsoniy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning jamiyat, uning tuzilishi ijtimoiy birliklar va ijtimoiy ong shakllariga aloqador turkumlarni ko'rsatish mumkin. Masalan, jamiyatning tuzilishida xos milliy, sinfiy, irqiy va boshqalar yoki ijtimoiy ongning shakllariga bog'liq: iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, manaviy. Ijtimoiy qadriyat shakllari orasidagi farqlar also mutloq emas balki nisbiydir, ular orasida o'tib bo'lmas chegaralar yo'q. Bugungi kunga kelib qadriyatlar iborasi nihoyatda mashhur bo'lib ketdi. Uni juda keng ma'noda ishlatish, ayniqsa, madaniy-ma'naviy hodisalar, urf – odatlar, an'analar va boshqalarga nisbatan umumiy nom yoki atama sifatida qo'llash hollari ko'p uchramoqda. Kundalik muloqotda qadri bor narsa, voqea, hodisa, xususiyat va boshqalarni “qadriyat” deb atashga ko'pchilik o'rganib qolgan. Ammo har bir so'z, atama va tushunchasining mohiyati va mazmuni o'ziga singdiradigan chegarasi bor.

U yoki bu tushunchadan ana shu mazmunga sig'maydigan ko'lamni talab qilishning keragi yo'q. Zero, qadriyat tushunchasining ommalashib, mashhur bo'lib ketganligi juda yaxshi. Lekin uni yanada kengroq ma'noda yoki zarur bo'lmagan hollarda ham ishlatish bu tushunchaning mazmunini hiralashtirishi, uning mohiyatini ifodalaydigan sifat chegarasini sarobga aylantirib qo'yishi, qadriyatni tushurishi mumkin.

Natija. Xalqimizning “ Qadrsiz qadriyat yo'q”, “ Qadrlanmaydigan qadriyat sarobga o'xshaydi”, degan hikmatlari bor. Ana shu sababdan ham, mamlakatimiz taraqqiyoti hgozirgi davrning yuksak ifodalari bo'lgan istiqloq, buyuk kelajak, vatanparvarlik, insonparvarlik, demokratiya, qonunning ustuvorligi kabi serqirra qadriyatlarni nihoyatda qadrlashimiz lozim. Ularning birinchisi- istiqloq e'lon



qilgan O'zbekiston taraqqiyotining yangi asr bo'sag'asidagi asosiy haqiqati, ikkinchisi- istiqboldagi eng oliy orzu- idealimiz, boshqalari esa qurilayotgan jamiyatimizning ijtimoiy va ma'naviy tamoyillarini belgilaydigan purma'no qadriyatlarimizdir. Istiqloq inson qadri, uning manfaat va ehtiyojlari bilan bog'liq masalalarni dolzarblashtirib yubordi. Inson qadri uning ijtimoiy xususiyatlari, jamiyatda amalga oshirgan faoliyati, boshqalarga va atrof- muhiga munosabati, kamolatga yetganligi, ijtimoiy xususiyatlarini o'zlashtirib olganligi va ularni ma'naviy qiyofasida namoyon qila qila olganligidan ham ko'rinadi. Odam bolasining shaxsga aylanishi, o'z qadrini va o'zgaralar qadrini anglash jarayoni uzoq yillar davom etadi.

Bugungi kunga kelib, insoniyat yama tabiat va odamzos naslining uyg'unligini saqlab qolish uchun qadr va qadriyat nihoyatda zarur ekanligini angladi. XX asrning va XXI asrning boshlanadigan birinchi besh yilliklar BMT tomonidan "Inson huquqlari o'n yilligi" deya e'lon qilinganligi, kishilik jamiyati esa yangi eng ming yillikka umuminsoniy qadriyatlarni barqaror qilishga bel bog'lab o'tayotganligi bejiz emas.

Xulosa. Hozirgi O'zbekistonda inson manfaatlari va haq-huquqlarini ro'yobga chiqarish, qadrlashning umuminsoniy tamoyillarini ustuvor qilish bilan bog'liq faoliyatlari butun jahonda bu boradagi umumiy hamkorlikni mustahkamlash harakatining tarkibiy qismiga aylanmoqda. Insonning butun umri shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirish, o'z qadrini kamolga yetkazish, o'zgaralar, jamiyat, zamon va undagi sodir bo'layotgan o'zgarishlar qadrini anglashga intilish jarayonidan iboratdir. O'z shaxsi va boshqalar qadrini anglab yetish uchun insonning kamoloti davomida shakllangan ma'naviy qiyofasi va dunyosi ezgulikka xizmat qilish, yuksak ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi, uning o'zi esa hayotning mohiyati va maqsadini to'g'ri angalaydigan darajada tarbiyalanmog'i lozim. Ushbu ma'noda, Suqrotning "O'z o'zini angla!"- shiori g'oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning qadri u yashayotgan zamon, undagi jarayonlar, ijtimoiy tarixiy shart-sharoitlar bilan dialektik aloqadorlikka namoyon bo'ladi. Muhit va davr talablari shaxs qadrini shakllantirib, sayqallab boradi, uning o'zi esa o'z qadrining shaxsiy talablari, ehtiyojlari va maqsadlari bilan naqadar aloqadorligini chuqurroq tushunish, jamiyat qonun-qoidalaridan to'g'ri foydalanish, o'zlarining hatti-harakatlarini ana shu shu ma'naviy mezonlar talabiga moslashtirish imkonini beradi. Hozirgi davrda talab avval o'quvchilarga qadrlash va qadrsizlanish jarayonlarining mohiyatini anglatish, mustaqillik e'lon qilgan qadriyatlarning ahamiyatini to'g'ri tushuntirishga erishish nihoyatda dolzarb masaladir.

Yoshlar, xususan talabalar va o'quvchilarni ma'naviy barkamol avlod vakillari sifatida tarbiyalash va shakllantirishda qadr va qadrlash tuyg'usi,



qadriyatlar kategoriyasi, ularning mohiyati, mazmuni, namoyon bo'lish shakllari to'g'risidagi bilimlarning majmuasi bo'lgan zamonaviy aksiologiya, ya'ni qadriyatshunoslikning asoslarini o'rganish nihoyatda muhim. Ana shu sababdan ham umumlashtirgan bilim sohalari imkoniyatidan foydalanish ta'lim- tarbiya samaradorligining asosiy mezonlaridan biridir.

Адабиётлар:

1. Choriyeva S. C. (2023). Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning mohiyati va mantiqiy jihatdan tahlili. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(9), 99–102. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3706>
2. Choriyevna C. S. Education and Education of Pre-School Children on the Basis of Steam Educational Technology // *American Journal of Social and Humanitarian Research*. – 2022. – T. 3. – №. 10. – С. 250-253.
3. Choriyevna C. S. Main Directions of Teacher Training and Improving Their Quality for the Preschool Education System // *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*. – 2022. – T. 1. – №. 5. – С. 51-54.
4. Choriyevna C. S. Education and Education of Pre-School Children on the Basis of Steam Educational Technology // *American Journal of Social and Humanitarian Research*. – 2022. – T. 3. – №. 10. – С. 250-253.
5. Choriyeva S. Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim samaradorligini oshirishning muammo va yechimlari // *Физико-технологического образование*. – 2022. – №. 4.
6. Choriyevna C. S. Ways to Develop Mental Abilities in Preschool Children // *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*. – 2022. – T. 15. – С. 174-177.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada qadriyatlar tushunchasi nihoyatda xilma-xil ma'noda turli sohalarda qo'llanilgani, qadriyatlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotini mahsuli sifati ekanligi, qadriyatshunos olimlar fikrlari, qadriyatlarining o'ziga xos qonunlari, milliy qadriyatlar negizini urfodatlar tashkil etishi haqida, umummilliy qadriyatlarni tiklash, avlod va ajdodlarimiz yaratgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqalishi haqidagi umumiy ma'lumot keltirib o'tilgan va keng ma'noda talaba ongiga yetib boradigan darajada yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье понятие ценности используется в различных областях в весьма разнообразном смысле, ценности - это качество продукта социально-экономического, культурно-духовного развития общества, мнения ученых-ценностников, конкретные законы ценностей, основы национальных ценностей - общие сведения об установлении обычаев, восстановлении национальных ценностей, история критериев оценки, созданных нашими поколениями и предками, восходит к древнейшим сказаниям, легендам, рассказы, былины, примеры народного творчества, и в широком смысле просвещается в той мере, в какой доходит до сознания учащегося.

SUMMARY

In this article, the concept of values is used in various fields in a very diverse sense, values are the quality of the product of social-economic, cultural-spiritual development of society, the opinions of value scientists, the specific laws of values, the basis of national values. General information about the establishment of customs, the restoration of national values, the history of the criteria of appreciation created by our generations and ancestors, goes back to the oldest stories, legends, stories, epics, i.e. examples of folk oral creativity, and in a broad sense, it is enlightened to the extent that it reaches the student's mind.